

RAQAMLI IQTISODIYOTNING JAMIYATGA TA'SIRI VA SUN'IY INTELLEKT RIVOJLANISHINING IJOBIV HAMDA SALBIY TOMONLARI

Komilov Boburmirzo Odiljon o'g'li

UNIVERSITY OF BUISNESS AND SCIENCE Iqtisodiyot yo'nalishi, talaba

Umarova Munira Muxitdinovna

UNIVERSITY OF BUISNESS AND SCIENCE "Menejment" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning jamiyatdagi o'rni va uning inson hayotiga ta'siri keng yoritilgan. Sun'iy intellekt texnologiyalarining ijobiy va salbiy jihatlari tahlil qilinib, ularning ta'lim, sog'liqni saqlash, ishlab chiqarish va elektron tijorat sohalariga ta'siri misollar asosida ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, telefonga qaramlik muammosi raqamli davrning salbiy oqibatlaridan biri sifatida tahlil qilinadi va uni kamaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Аннотация: *В данной статье подробно рассматривается влияние цифровой экономики на общество и повседневную жизнь человека. Анализируются положительные и отрицательные стороны развития искусственного интеллекта, его влияние на образование, здравоохранение, производство и электронную коммерцию. Также рассматривается проблема зависимости от телефона как одно из негативных последствий цифровизации, и предлагаются практические меры по её снижению.*

Abstract: *This article explores the impact of the digital economy on society and human life. It analyzes the positive and negative aspects of artificial intelligence development and its effects on education, healthcare, manufacturing, and e-commerce. The issue of smartphone addiction is also discussed as one of the negative consequences of digitalization, with practical recommendations to mitigate it.*

Kalit so'zlar: *Raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, elektron tijorat, raqamlashtirish, oliy ta'lim, maktab ta'limi, raqamli transformatsiya, telefonga qaramlik, innovatsion texnologiyalar, iqtisodiy barqarorlik.*

KIRISH

Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda global taraqqiyotning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u nafaqat iqtisodiy jarayonlarni, balki ijtimoiy munosabatlarni ham tubdan o'zgartirmoqda. Sun'iy intellekt, internet va avtomatlashtirish tizimlarining keng qo'llanilishi natijasida yangi ish o'rinlari, yangi kasblar va yangi iqtisodiy imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotning salbiy oqibatlari ham mavjud, jumladan, telefonga qaramlik, ma'lumot xavfsizligi muammolari va ijtimoiy izolyatsiya holatlari.

ASOSIY QISM

O'zbekistonda elektron savdo tizimi so'nggi yillarda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bu jarayon raqamli iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Elektron savdo nafaqat aholiga qulaylik yaratadi, balki vaqtni tejash, narxlar shaffofligini ta'minlash, hamda kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Elektron savdoning O'zbekistondagi huquqiy asoslari 2015-yil 9-dekabrda qabul qilingan "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun bilan belgilangan. Shu hujjat orqali



mamlakatda elektron savdo platformalarining faoliyati qonuniy asosda yo'lga qo'yildi.

STATISTIK MA'LUMOTLAR

2020–2024-yillar oralig'ida

O'zbekistonda elektron savdo hajmi 3 barobarga oshdi. Masalan, "Uzum Market", Korzinka, OLX, platformasi 2022-yilda

1 million faol foydalanuvchiga ega bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 4 milliondan oshdi.

Shu bilan birga, "Makro" tarmog'i ham raqamli xizmatlarni joriy etib, onlayn buyurtmalar ulushini 25% ga yetkazdi.

Elektron savdoning ijobiy va salbiy tomonlari

Ijobiy tomonlari:

- Aholi uchun qulaylik va vaqt tejalishi;
- Narxlar bo'yicha raqobatning kuchayishi;
- Mahsulotlar turlarining kengayishi;
- Yangi ish o'rinlarining yaratilishi (kuryerlik, IT, marketing va boshqalar).

Salbiy tomonlari:

- Mahsulot sifati va yetkazib berishdagi kechikishlar;
- Firibgarlik holatlarining ortishi;
- An'anaviy savdo do'konlarining mijoz yo'qotishi.

TAVSIYALAR

Elektron savdoni yanada rivojlantirish uchun davlat tomonidan quyidagi choralarni ko'rish maqsadga muvofiq: axborot xavfsizligini mustahkamlash, soliq tizimini soddalashtirish, onlayn to'lov tizimlarini kengaytirish va mahalliy startaplarni qo'llab-quvvatlash. Shu orqali raqamli iqtisodiyotning barqaror rivoji ta'minlanadi.

XULOSA

O'zbekistonda elektron savdo tizimining rivojlanishi nafaqat iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasiga, balki jamiyatda iste'mol madaniyatining o'zgarishiga ham olib keldi. Bu jarayon an'anaviy do'konlarni ham yangi sharoitlarga moslashishga majbur qilmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning asosiy afzalliklaridan biri bu samaradorlikni oshirishdir. Masalan, elektron tijorat tizimlari orqali tovar va xizmatlar almashinuvi tezlashmoqda. Ta'lim tizimida esa raqamlashtirish onlayn ta'lim platformalari orqali bilim olish imkoniyatini kengaytirmoqda. Sun'iy intellekt esa inson faoliyatining turli sohalarida yordamchi vosita sifatida ishlayapti. Shu bilan birga, AI texnologiyalari ish o'rinlarini qisqartirish, axloqiy me'yorlarning buzilishi va inson fikrlashiga salbiy ta'sir ko'rsatish xavfini ham keltirib chiqarmoqda.

Telefonga qaramlik esa raqamli iqtisodiyotning nojo'ya oqibatlaridan biridir. Yoshlar orasida mobil qurilmalardan haddan tashqari foydalanish natijasida diqqatning pasayishi, vaqtni samarasiz sarflash va ijtimoiy aloqalarning zaiflashuvi kabi muammolar kuzatilmogda. Shu bois, raqamli madaniyatni rivojlantirish va telefonlardan to'g'ri foydalanish bo'yicha ta'limiy dasturlarni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

TAVSIYA VA CHORA-TADBIRLAR

1. Raqamli savodxonlikni oshirish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish.
2. Maktab va oliy ta'lim tizimida raqamli iqtisodiyot fanlarini joriy etish.
3. Sun'iy intellektdan foydalanishda axloqiy me'yorlarni mustahkamlash.
4. Telefonga qaramlikka qarshi psixologik va ijtimoiy dasturlar yaratish.
5. Raqamli iqtisodiyot sohasida davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish.

Raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt insoniyat hayotini tubdan o'zgartirayotgan eng muhim hodisalardan biridir. Ular iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasini modernizatsiya qiladi. Shu bilan birga, telefonga qaramlik kabi ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun texnologik taraqqiyot bilan bir qatorda inson omilini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tapscott, D. (2015). *The Digital Economy: Rethinking Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence*. – New York: McGraw-Hill, pp. 23–145.
2. Schwab, K. (2016). *The Fourth Industrial Revolution*. – Geneva: World Economic Forum, pp. 10–98.
3. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2017). *Machine, Platform, Crowd: Harnessing Our Digital Future*. – New York: W.W. Norton & Company, pp. 35–202.
4. Kuziev, I. (2022). Raqamli iqtisodiyotning rivojlanish yo'nalishlari va O'zbekiston tajribasi. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, pp. 15–89.
5. Karimov, N. (2021). Sun'iy intellekt va uning jamiyatdagi o'rni. – Toshkent: Fan va texnologiya, pp. 45–128.
6. OECD (2020). *Measuring the Digital Transformation: A Roadmap for the Future*. – OECD Publishing, Paris, pp. 50–160.
7. UNCTAD (2021). *Digital Economy Report 2021: Cross-border data flows and development*. – United Nations, Geneva, pp. 70–190.